

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURNI RIVOJLANTISHDA KITOB O'QISHNING AHAMIYATI

Nazirxo'jayeva Xidoyatxon Muhiddin qizi

Qo'qon universiteti Boshlang'ich

ta'lim 8-24 guruh talabasi

Email: nazirxojayevah@gmail.com

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim

kafedrası katta o'qituvchisi

Email: ms.zulfiyaxon08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola kitob o'qishning inson hayoti va ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri rivojlanishidagi muhim ahamiyatini yoritadi. Kitob o'qish nafaqat bilim olish vositasi, balki miyaning faoliyatini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, stressni kamaytirish va shaxsiy o'ziga ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon bolalarning so'z boyligi, diqqat va xotira qobiliyatlarini mustahkamlashda, ijodiy va mantiqiy fikrlashni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, Prezident farmoyishlari va davlat dasturlari kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. UNESCO va UNICEF tashkilotlarining tadqiqotlari ham kitob o'qishning yosh avlodning aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni haqida qo'shimcha dalillar beradi. Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish inson tafakkurini kengaytirish, ma'naviy olamni boyitish va jamiyat rivojida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'z: kitob, tafakkur, nutq, stress, diqqat, xotira, dastur, kitobxonlik madaniyati, UNESCO, UNICEF.

Аннотация: Эта статья освещает важность чтения в жизни человека и особенно в развитии мышления учащихся начальных классов. Чтение книг - это не только средство получения знаний, но и способствует повышению активности мозга, развитию культуры речи, снижению стресса и повышению личной уверенности в себе. Этот процесс играет важную роль в укреплении словарного запаса, внимания и памяти детей, стимулировании творческого и логического мышления. Распоряжения Президента и государственные программы также включают в себя комплекс мер, направленных на развитие культуры чтения. Исследования ЮНЕСКО и ЮНИСЕФ также предоставляют дополнительные доказательства роли чтения в интеллектуальном и социальном развитии молодого поколения. В заключение можно сказать, что чтение книг является важным фактором расширения человеческого мышления, обогащения духовного мира и развития общества.

Ключевое слово: книга, мышление, речь, стресс, внимание, память, программа, культура чтения, UNESCO, UNICEF.

Abstract: This article highlights the importance of reading in human life and especially in the development of thinking in primary school students. Reading books is not only a means of acquiring knowledge, but also serves to increase brain activity, develop speech culture, reduce stress, and increase personal self-confidence. This process plays an important role in strengthening children's vocabulary, attention, and memory, and stimulating creative and logical thinking. Presidential decrees and state programs also include a wide range of measures aimed at developing a culture of reading. Research by UNESCO and UNICEF also provides additional evidence about the role of reading in the mental and social development of the younger generation. In conclusion, reading books is an important factor in expanding human thinking, enriching the spiritual world, and developing society.

Keywords: book, thinking, speech, stress, attention, memory, program, reading culture, UNESCO, UNICEF.

Kirish. Kitob o'qish xotira va tafakkurni rivojlantiradi, nutqni boyitadi, stressni kamaytiradi, o'ziga ishonchni oshiradi va ma'naviy dunyoni kengaytiradi, deb ta'kidlanadi. Shuningdek, kitob o'qish odamlarga yaxshi suhbatdosh bo'lishga va atrofdagilarda ijobiy taassurot qoldirishga yordam beradi. Kitob o'qish inson aqliy va ruhiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlardan biridir. Tarix davomida kitoblar insoniyatning madaniy merosi va bilimlarini avlodlarga yetkazishda asosiy vosita bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatda kitoblarni chop etish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlarni belgilaydi. Ular axborot-kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, yoshlar orasida kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda kitob mutolaasini keng targ'ib qilishni maqsad qilgan. **2017-yil 13 sentyabr, Prezident farmoyishi — “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” (PQ-3271)** Ushbu farmoyishda: Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanishi nazarda tutilgan. Elektron kutubxona tizimlari faoliyati kengaytirilib, odamlar, ayniqsa yoshlar uchun kitobga bo'lgan kirish imkoniyati oshiriladi. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish “kompleks chora-tadbirlar” orqali qo'llab-quvvatlanishi belgilangan. **Vazirlar Mahkamasining “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash” qarori (781-son, 14-dekabr 2020 yilda)** Ushbu qaror bo'yicha: Har yili aprel oyida “Kitobxonlik haftaligi” o'tkazilishi rejalashtiriladi. Ushbu haftalik doirasida yoshlar

tomonidan kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish, kitob mutolaasini targ'ib qilishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qarori (7 iyun 2019) Ushbu qaror bilan: Maktablar va kollejlarda qoshidagi barcha axborot-resurs markazlari (kutubxona shaklida bo‘lgan) tugatilishi va ularning kitob fondlari yangi tashkil etiladigan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga berilishi e‘lon qilingan. Axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish uchun moliyaviy va tashkiliy chora-tadbirlar belgilangan.¹

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurining rivojlanishi bolaning umumiy bilim olish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar hayotni yangi nioh bilan qabul qilishga, atrof-muhitni o‘rganishga, o‘z fikrlarini shakllantirishga intiladi. Shu jarayonda kitob o‘qish tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kitob o‘qish orqali bolalar yangi so‘zlar, tushunchalar va fikrlarni o‘zlashtiradilar. Bu ularning til boyligini oshiradi va fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Shuningdek, ertaklar, hikoyalar va ma‘naviy-axloqiy darsliklar o‘quvchilarning tafakkurida ijodiy va mantiqiy fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradi. Kitob o‘qish bolalarning e‘tiborini jamlash, xotira va tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. Tafakkur jarayonida bolalar voqealar ketma-ketligini tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa ularning muammolarni hal qilish va tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi. Shuningdek, kitob o‘qish orqali bolalar dunyoqarashini kengaytiradi, turli madaniyatlar va odamlarning hayot tarzi bilan tanishadi. Bu esa ularning ijtimoiy tafakkurini va empatiya qobiliyatini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda kitob o‘qishning ahamiyati juda katta bo‘lib, u bolalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi²

Asosiy qism. Bugungi hayotda ko‘p odamlar stressga duch keladi. Kitob o‘qish esa stressni kamaytiradi, ruhiy holatni yaxshilaydi. Uyqudan oldin kitob o‘qish bolalarning tinchlanishiga yordam beradi va yaxshi uxlashga olib keladi. Eng muhimi, kitob o‘qish tafakkur va xotirani rivojlantiradi. Bola o‘qigan kitobidagi voqealarni, qahramonlarning xarakterini o‘rganib, fikrlashni o‘rganadi. Bu esa uning muammolarni yechish qobiliyatini oshiradi. Shuning uchun, ota-onalar va o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otishlari kerak. Oila davrasida kitob o‘qish an‘analarini yaratish, bolalarni har kuni kamida biroz vaqt kitob o‘qishga undash juda muhim.

Kitob o‘qish — bu hayotni o‘rganish, yangi dunyo bilan tanishish va o‘zini rivojlantirish yo‘li. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kitob do‘stlik, bilim va zavq

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-sonli qarori

² <https://pedagog.uz/boshlangich-sinf-oquvchilarining-tafakkuri>

manbai bo'lib xizmat qiladi. Har bir bola kitobni sevib, o'qishga odatlanishi kerak. Shunda u kelajakda aql-zakovatli, dono va muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitob o'qish nafaqat bilim olish, balki tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirish uchun eng muhim vositadir. Kitob orqali o'quvchi yangi so'zlar, fikrlarni tuzish va voqealarni tushunish qobiliyatlarini o'zlashtiradi. Bu yoshda o'qilgan kitoblar bolalarning aqliy rivojlanishiga, fikrlar o'rtasida bog'lanishlarni ko'rishga, muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Kitob o'qish bolalarning xotira qobiliyatini oshiradi, ular voqealarni yaxshiroq eslab qoladilar, tafakkur jarayonida mantiqiy fikrlash va taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, kitoblar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatadi. Mutolaa davomida bolalar o'z fikrlarini ifodalashni, savollar berishni, muhokama qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning kommunikatsiya va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.³

Mashhur fizik olim Albert Einstein : "*Agar bolangiz aqlli bo'lishini istasangiz, unga ertaklar o'qing. Agar undan ham aqlli bo'lishini istasangiz, yana ko'proq ertaklar o'qing.*" Bu fikr orqali Einstein bolalarning tasavvurini, tafakkurini va ijodkorligini rivojlantirishda kitob, ayniqsa bolalar adabiyotining muhimligini ta'kidlaydi.

Dr. Seuss : "*The more that you read, the more things you will know. The more that you learn, the more places you'll go.*" (Tarjimasi: *Qancha ko'p o'qisangiz, shuncha ko'p narsani bilasiz. Qancha ko'p o'rgansangiz, shuncha uzoqqa borasiz.*) Mashhur yozuvchi va rassom. Uning haqiqiy ismi Theodor Seuss Geisel bo'lib, u 1904-yil 2-martda AQShning Massachusets shtatida tug'ilgan. Dr. Seuss asosan bolalar uchun yozilgan o'ziga xos va qiziqarli ertaklar, she'rlar va rasmlar kitoblari bilan tanilgan. Bu gap kitob o'qish orqali bolalar tafakkuri kengayib, hayotda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi.

Buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi **Alisher Navoiy**:

"Ko'p kitob o'qigan kishining fikri teran bo'lur.

-bu jumla orqali Navoiy ilm va tafakkurning asosida kitob o'qish yotishini, ayniqsa yoshlikdan boshlab bu odatni shakllantirish zarurligini bildiradi.

Abdulla Avloniy: "*Bolaga beriladigan tarbiyaning eng muhimi – unga ilm va kitobni sevdurishdir.*"

Avloniy kitobga bo'lgan muhabbatning bola dunyoqarashini kengaytirishi va tafakkurini rivojlantirishini alohida ta'kidlaydi. Abdulla Avloniy o'zbek ziyolisi, shoir, noshir, tarixchi, va o'qituvchi hisoblanadi. Avloniy o'zbek milliy ma'rifatparvarligi va jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biri bo'lib, turli adabiy, ilmiy va madaniy sohalarda faoliyat yuritgan.

³ <https://pedagog.uz/boshlangich-sinf-oquvchilarining-tafakkuri>

UNESCO — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, Fan va Madaniyat bo'yicha tashkiloti bo'lib, u butun dunyoda ta'lim, xususan, o'qish savodxonligini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. UNESCO ta'lim va o'qish madaniyatini oshirish orqali insonlarning tafakkurini, bilim darajasini, hamda jamiyatdagi farovonlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

UNESCO, shuningdek, butun dunyoda o'qishni targ'ib qilish uchun turli dasturlarni amalga oshiradi, masalan, bolalar uchun kitoblar, o'qituvchilarni tayyorlash va ota-onalarni jalb qilish bo'yicha loyihalar. Ular o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish va muntazam kitob o'qish odatini shakllantirishni maqsad qilgan.⁴

UNICEF — Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar huquqlari va farovonligini ta'minlash bo'yicha tashkiloti bo'lib, u bolalarning to'laqonli rivojlanishi uchun erta ta'limga katta e'tibor qaratadi. UNICEFning tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich yoshda — ayniqsa 0 dan 8 yoshgacha bo'lgan davrda — kitob o'qish bolalarning tafakkuri, til rivoji, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omildir. Bolalarga ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan kitob o'qilishi, ularning so'z boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini mustahkamlash va diqqatni jamlashga yordam beradi. Bu yoshda muntazam o'qish odati hosil qilish ularning maktabdagi muvaffaqiyati va hayotda ijtimoiy muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. UNICEF, shuningdek, kitob o'qish jarayonida ota-onalarning faol ishtirokini tavsiya qiladi, chunki oila muhitida o'qish — bolalarning bilimga bo'lgan muhabbatini rivojlantirish va ularni o'rganishga tayyorlash uchun eng samarali yo'ldir.⁵

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitob — insonning eng yaqin do'sti, eng ishonchli hamrohi bo'lib, har bir sahifasi hayot saboqlariga to'la. Shuning uchun yosh avlodni kitobga oshno etish, unda o'qishga muhabbat uyg'otish — jamiyatimiz ravnaqi va kelajagi uchun muhim omildir. Har bir inson o'z hayotida kitobga yetarlicha e'tibor qaratgan taqdirdagina, ma'naviy yetuk va intellektual jihatdan kuchli shaxs bo'lib kamol topadi.⁶

Kitob — bu bilish va o'rganishning eng yaxshi do'sti. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitob o'qish juda muhim, chunki bu yoshda bolalar dunyoni kashf qila boshlaydi. Kitoblar ularni yangi bilimlar, hayajonli hikoyalar va yaxshi odatlar bilan tanishtiradi. Boshlang'ich sinfda o'qiy boshlagan bola kitob yordamida so'z boyligini oshiradi. Bu degani, bola ko'proq yangi so'zlarni o'rganadi, gapirishi va yozishi yaxshilanadi. So'zlarni ko'p bilish muloqotni osonlashtiradi va bola o'z fikrlarini yaxshiroq ifoda eta oladi. Kitob o'qish muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, ya'ni bola boshqalar bilan yaxshi suhbatlashishni o'rganadi. Bundan tashqari, kitob

⁴<https://en.unesco.org/themes/literacy>

⁵ . <https://www.unicef.org/early-childhood-development>

⁶ Rahmatova, Sh. (2022). Yoshlar qancha kitob o'qiydi? *Yoshlar Ovozi*. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/yoshlar-qancha-kitob-oqiydi>.

o'qish bola o'ziga ishonch bag'ishlaydi. Kitob orqali u yangi narsalarni bilib, o'z bilimlariga tayanadi. Bu uning o'zini yanada quvnoq va jasoratli his qilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi** (13 sentyabr 2017 yil). "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" (PQ 3271).
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori** (14 dekabr 2020 yil). "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash" (781-son).
3. **UNESCO** (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, Fan va Madaniyat bo'yicha tashkiloti). "Kitob o'qish va ta'lim madaniyatini oshirish bo'yicha xalqaro tadqiqotlar".
4. **UNICEF** (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar huquqlari va farovonligini ta'minlash bo'yicha tashkiloti). "Bolalarning aqliy va emotsional rivojlanishiga kitob o'qishning ta'siri".
5. **Einstein. A.** (1940). "Agar bolangiz aqlli bo'lishini istasangiz, unga ertaklar o'qing." Shaxsiy fikrlar va bilimlar.
6. **Seuss. D.** (1978). "The more that you read, the more things you will know. The more that you learn, the more places you'll go."
7. **Navoiy. A.** (15-asr). "Ko'p kitob o'qugan kishining fikri teran bo'lur." "Majolis un-nafois" risolasidan.
8. **Avloniy. A.** (1912). "Bolaga beriladigan tarbiyaning eng muhimi – unga ilm va kitobni sevdirdir." Ma'naviyat va ta'lim haqidagi asarlaridan.
9. **Hoshimova. M.** (2023). "Kitob o'qishning madaniy shakllanishi: Oila va tilning ahamiyati". O'zbek kitobxonlik madaniyati tadqiqotlari.